


Bankni strategik rivojlantirish departamenti

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

16 noyabr, 2026 yil

SQB, NBU, AGRO BANK, IPOTEKA BANK va ALOQA BANK evrobondlarining daromadliligi

(20 oktabr 2025 yildan 16 noyabr 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SANOAT QURILISH BANK

SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida6,965% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarilib va 7,065% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,790% – 7,131% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,905% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich 10,088% darajaga ko'tarildi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 10,190% gacha o'zgarib turdi.

NBU O'ZBEKISTON MILLIY BANKI

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,678% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,707% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,982% gacha o'zgarib turdi.

ipotekabank otp group

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,988% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 7,074% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-7,04% gacha o'zgarib turdi.

Agrobank

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 7,170% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 7,171% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,387% gacha o'zgarib turdi.


AloqaBank

O'tgan hafta ALOQA BANK evrobondlarining daromadliligi 8,337% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 8,314% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 7,680-8,537% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,97% atrofida barqaror bo‘lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,88% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko‘rsatkich ko’tarilib— 3,9 darajasiga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o‘zgarishlarini ko‘rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo‘yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o‘zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko‘plab ipoteka kreditlari bog‘langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o’tgan haftaning boshiga kelib 2,775% (3 oylik) va 3,015% (6 oylik) darajalariga yetdi. 2023-yilning oktyabr o‘rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo‘lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko‘rsatkichlar 3,103% (6 oylik) va 2,812% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O‘zbekiston valyuta bozori

O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O‘tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 841,3 million dollarni tashkil etdi, bu o‘tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 63,9 million dollarga kamroq.
- ✓ O‘tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 994 so‘mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko‘tarilib 12 014 so‘mga yetdi.
- ✓ Har yili so‘m o‘rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o‘tkazmalari bilan bog‘liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya 0,52% ni tashkil etdi.

Dollarning so‘mga nisbatan almashinish kursi






16.11.2026 yil holatiga ko‘ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Universalbankda* qayd etilgan – *12 030* so‘m. Boshqa banklarda esa kurs 12 040 – 12 070 so‘m atrofida o‘zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo‘yicha eng foydali kurs *SQB da* qayd etilgan – 11 960 so‘m. Boshqa ko‘plab banklarda esa kurs 12 000 – 11 940 so‘m atrofida bo‘lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



YUAN-RUB dinamikasi



EUR-USD dinamikasi





Rossiya rubli AQSH dollariga nisbatan biroz qadrsizlandi

2026-yil 9–13-noyabr kunlari AQSH dollarining Rossiya rubliga nisbatan kursi 82,5 rubldan 82,7 rublgacha ko‘tarildi. Rossiya valyutasining eng sezilarli qadrsizlanishi 10-noyabr kuni kuzatilib, dollar kursi 83,2 rublga yetdi. Hafta boshida jahon bozorida neft narxlarining pasayishi va xorijiy valyutaga bo‘lgan talabning ortishi rubl kursiga bosim o‘tkazgan bo‘lishi mumkin. Keyinchalik neft narxlarining tiklanishi rublning qisman mustahkamlanishiga xizmat qildi. Rossiya valyutasining keyingi dinamikasi neft bozori konyunkturasi, eksportdan tushadigan valyuta tushumlari hajmi hamda xorijiy valyutaga bo‘lgan talabga bog‘liq bo‘ladi.



Xitoy yuani Rossiya rubliga nisbatan mustahkamlandi

2026-yil 9–13-noyabr kunlari Xitoy yuanining Rossiya rubliga nisbatan kursi 11,9 rubldan 12,1 rublgacha ko‘tarildi. Hafta davomida yuan kursi 11,9–12,1 rubl oralig‘ida o‘zgarib, Rossiya valyutasining mo‘tadil qadrsizlanishini aks ettirdi. Hafta boshida jahon bozorida neft narxlarining pasayishi va xorijiy valyutaga bo‘lgan talabning ortishi rubl kursiga bosim o‘tkazdi. Keyinchalik neft narxlarining tiklanishi Rossiya valyutasi kursining qisman barqarorlashishiga xizmat qildi. CNY/RUB valyuta juftligining keyingi dinamikasi eksportdan tushadigan valyuta tushumlari hajmi, xorijiy valyutaga bo‘lgan talab va neft bozori konyunkturasiga bog‘liq bo‘ladi.



Yevro AQSH dollariga nisbatan qadrsizlandi


2026-yil 9–13-noyabr kunlari yevroning AQSH dollariga nisbatan kursi 1,1223 dan 1,1021 gacha pasayib, barqaror pasayish tendensiyasini namoyon etdi. Inflyatsiya ko‘rsatkichlarining bozor kutilmalaridan yuqori bo‘lgani to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilinishi fonida AQSH dollarining mustahkamlanishi Yevropa valyutasi qadrsizlanishining asosiy omili bo‘ldi. AQSH Federal rezerv tizimi tomonidan foiz stavkalarining yana oshirilishi bo‘yicha kutilmalarning kuchayishi AQSH davlat obligatsiyalari daromadliligining o‘sishiga hamda dollarda ifodalangan aktivlar jozibadorligining ortishiga xizmat qildi. Valyuta juftligining keyingi dinamikasi AQSH va yevrohududning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, shuningdek, Federal rezerv tizimi va Yevropa markaziy bankining pul-kredit siyosatiga oid bozor kutilmalariga bog‘liq bo‘ladi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlari dinamikasi
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida)



Brent nefti narxlari dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlari dinamikasi
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



Jahon bozorida oltin narxlari haftani pasayish bilan yakunladi



2026-yil 9–13-noyabr kunlari jahon bozorida oltin narxi bir troya unsiyasi uchun 4 139,0 AQSH dollaridan 3 880,3 dollargacha pasaydi. Haftaning aksariyat qismida pasayish tendensiyasi kuzatilib, 12-noyabr kuni oltin narxi 3 876,4 dollarni tashkil etdi va ko‘rib chiqilayotgan davrdagi eng past darajaga yetdi. AQSH dollarining mustahkamlanishi hamda Federal rezerv tizimining kelgusidagi pul-kredit siyosatiga oid bozor kutilmalarining qayta ko‘rib chiqilishi qimmatbaho metall narxiga bosim o‘tkazgan bo‘lishi mumkin. Hafta oxirida narxlarning biroz tiklanishiga qaramay, oltin bozori foiz stavkalarining o‘zgarishi va AQSHning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga nisbatan sezgirligicha qolmoqda.

Brent markali neft narxi haftani o‘sish bilan yakunladi



2026-yil 9–13-noyabr kunlari jahon bozorida Brent markali neft narxi bir barrel uchun 92,57 AQSH dollaridan 95,52 dollargacha ko‘tarildi. Hafta boshidagi pasayishdan so‘ng neft kotirovkalari tiklanib, 12-noyabr kuni 95,82 dollar bilan ko‘rib chiqilayotgan davrdagi eng yuqori darajaga yetdi. Yaqin Sharqdagi geosiyosiy keskinlik va neft yetkazib berishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan uzilishlar bilan bog‘liq xavotirlar narxlarning o‘sishiga turtki berdi. Shu bilan birga, jahon bozorida taklifning talabdan ortib ketishi bo‘yicha kutilmalar kotirovkalarning yanada o‘sishini chekladi. Neft bozori geosiyosiy xatarlar hamda talab va taklif muvozanatidagi o‘zgarishlarga nisbatan yuqori sezgirligini saqlab qolmoqda.

Yevropa TTF gaz narxlari o‘sishda davom etdi



2026-yil 9–13-noyabr kunlari Yevropa gaz bozorida TTF kotirovkalari 82,6 dan 91,2 gacha ko‘tarilib, hafta davomida barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etdi. Isitish mavsumida tabiiy gazga bo‘lgan talabning ortishi, Yevropa gaz omborlaridagi zaxiralarning qisqarishi hamda geosiyosiy keskinlik fonida suyultirilgan tabiiy gaz (STG) yetkazib berishda uzilishlar yuzaga kelishi xavfining saqlanib qolishi narxlarning o‘sishiga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin. Kotirovkalarning keyingi dinamikasi ob-havo sharoiti, gaz zaxiralarining sarflanish sur’atlari hamda energiya resurslari yetkazib berishning barqarorligiga bog‘liq bo‘ladi.